
MAHALLA YETTILIGI FAOLIYATIGA DOIR MAHALLANI QO'LLAB-QUVVATLASH KENGASHI YIG'ILISHI O'TKAZILDI



Mahalla yettiligi faoliyatiga doir mahallani qo'llab-quvvatlash kengashi yig'ilishi o'tkazildi

Tuman hokimligi majlislar zalida **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrda PF-209-sonli Farmoniga muvofiq** mahallani qo'llab-quvvatlash kengashi yig'ilishi o'tkazildi. Tuman hokimi o'rinbosari Ilhom Abdumajidov rasiligida bo'lib o'tgan mazkur tadbirda tumandagi mahalla fuqarolar yig'inlari raislari va mahallalar yettiligi ishtirok etdi.

Tadbirda mahallalarda olib borilayotgan ishlar xususida so'zlagan tuman hokimi o'rinbosari boshlangan ishlarni yanada samaraliroq yo'lga qo'yish lozimligini alohida ta'kidladi. Mahalla yettiligi faoliyati natijadorligini yanada oshirishga doir tavsiyalar berildi.

Tadbirda so'z olgan mutasaddilar **mahalla yettiligi** faoliyatini samarali yo'lga qo'yish, aholi muammolarini hal etilishini tashkil etish, **mahallani ishsizlik, kambag'allik, jinoyatchilik, oilaviy ajrim va migratsiyadan xoli hududga aylantirish masalalariga doir o'z fikr-mulohazalarini bayon etdilar. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 209-sonli Farmoniga muvofiq bunday tadbirlar viloyatlar miqyosida har uch oyda**, tuman (shahar) mahallani qo'llab-quvvatlash Kengashlari tomonidan har oyda kamida bir marotaba o'tkazilishi ko'rsatib o'tilgan.









[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2024-12-25 16:45:52